

AVANT[®]
quartz



Texnik ko'rsatma



Mahsulotning tavsifi

Avant Quartz® – Bu turar-joy, tijorat va jamoat binolarida jozibali, ko'p funktsiyali va noyob pardozlash materiali sifatida ishlatiladigan asl kvarts tosh yuzasi. Avant Quartz kvarts toshi ishlatilishga bardoshli, shuning uchun uni interyerning deyarli har qanday yuzasida qo'llash mumkin. U estetik ko'rinishga ega va boshqa materiallar bilan yaxshi mos keladi.

Avant Quartzning ishlatilish sohalari:

- Oshxona stoleshnitsalari va ish joylariga ega fartugi
- Hammomlarning devorlarining qoplamasi
- Rakovinalar
- Binolar ichki devorlarining qoplamasi
- Stoleshnitsalar
- Hammom va hojatxonalar o'rtasidagi to'siqlar
- Kamin tokchasi va romi
- Lift devorlari
- Taom tarqatish joylari
- Zinapoyalarning qoplamasi



7500 Calacatta Aras

Avant Quartz xususiyatlari bo'yicha tabiiy toshdan ham o'tadi. Uning egilish kuchi granitdan to'rt barobar, bog'anish kuchi esa ikki barobar ko'p. Marmar ko'rsatkichlaridan esa undan ham ko'p o'tadi. Undan tashqari, Avant Quartz tabiiy toshga qaraganda yorilishlarga olib keladigan chuqurchalar va bo'shliqlarga ega emas.

Kvarts toshi mustahkam va chidamlidir, bu esa uncha qalin bo'lmagan va kattaroq maydondagi plitalardan foydalanishga imkon beradi, og'irligida 3 tejamkorlikni beradi va bo'g'inlar sonini kamaytiradi.

Avant Quartz yuzalari maxsus parvarishga muxtoj emas. Avant Quartz tayyorlangan kvarts massasi, granit darajasida qirilishlarga bardoshli va qattiq qiladi. Yuqori darajadagi bog'lovchi mahsulotlar sababli, Avant Quartzda chuqurchalar yo'q, shuning uchun u dog'larning paydo bo'lishiga ham chidamli.

Avant Quartz maxsus himoya qatlami va vosksiz chiroyli ko'rinishini saqlab qolish imkoniga ega bo'lgani uchun restoran, kasalxona va maktablarning yuqori talablariga javob beradi.



7400 Calacatta Dofine

Avant Quartzning ishlatilish xususiyatlari

- Chiroyli va uzoq xizmat qiladi
- Qattiq va bir vaqtning o'zida, egiluvchan
- Qirilishlarga chidamli
- Dog'larga chidamli
- Ko'plab kimyoviy vositalar, kislotalar va erituvchi moddalarga chidamli
- Mog'or va qo'ziqorinlarni rivojlantirmaydi
- Yuqori haroratga chidamli

Tarkibi

Avant Quartz 93% qattiq tabiiy mineral hisoblanadigan kvarts uvog'idan (dioksid kremeni SiO_2) tashkil topgan. Kvartsni yuqori sifatli polimer qartonlari va pigmentlar bilan aralashirib, vibrotolqinlar, vakkum va yuqori bosim ostida aralashmani qattiq va chuqsiz plitalarga aylantiradilar. So'ng, bu plitalar kerakli qalinlikka keltirilib, yaltiroq yuzaga kelguncha yoki yoqimli mat qoplamasigacha ishlov beriladi. Nazoratdan o'tgandan so'ng, Avant Quartz har bir plitasining orqa tomoniga mahsulotlarni qayta ishlash va ishlab chiqarish jarayonida tomonlarni aniqlashni osonlashtirish uchun tovar belgisi qo'llaniladi.

Ranglari va uslublari

Avant Quartz kvarts yuzalarini qo'llash bilan turli xil dizayn variantlarini taklif etadi. Uslublar mayda bo'rttirishlardan tortib, katta uvog'li va ignali rasmlarga qadar o'zgarib turadi. Rang sxemasi bilan tanishish va namunalarni olish uchun bizning veb-saytimizga tashrif buyuring yoki ko'rsatmalar oxirida berilgan raqam va manzil orqali INTERSTONEga tashrif buyuring.

Yuzaning turi

Plitalarning yaltiroq yuzasi 60° burchak ostida kamida 42% ipakdek porlashni aks ettiradi.



7040 Calacatta Bomenille

O'lchamlari

Standart qalinligi	Ishlatilish sohalari
... mm	Devor, pol va zinapoyalarni qoplashda ishlatish tavsiyalanadi
20 mm	Oshxona stoleshnitsalari va bo'linmalar uchun minimal qalinlik xisoblanadi Pol plitalari uchun ham ishlatilishi mumkin
30 mm	Ko'proq chidamlik va ko'proq qalinlik kerak bo'lgan joylarda ishlatiladi
Plitalarning o'lchamlari	uzunligi 305 sm, kengligi 144 sm - Standart uzunligi 320 sm, kengligi 160 sm - Jumbo

Qo'llanishdagi cheklovlar

Avant Quartz kvarts toshidan faqatgina interyer, ya'ni ichki makon uchun qo'llanish tavsiya etiladi.

Yuqori harorat. Avant Quartz issiq haroratga qisqa muddat davomida chidamli bo'ladi. Issiq buyumlar tagiga maxsus taxtalar ishlatilishi tavsiya etiladi.

Kimyoviy moddalar. Trikloretan yoki diklorometan (masalan, bo'yoqlarni tozalash vositalari yoki erituvchilar), abrazivlar, qiymati $pH > 8$ bo'lgan gidroksidi, gidroflorik kislotalar, suyuq sinka, gentsianviolet, shuningdek, pech yoki gaz uchun mo'ljallangan yuvish vositalarini yuzaga tegishidan saqlang.

Kislotalar. Avant Kvarts oddiy kislotalar, shu jumladan xlorid va oltingugurt eritmalarining ta'siridan qo'rqmaydi. ba'zi kislotalarning konsentrlangan eritmalariga, masalan, azot bilan uzoq vaqt ta'sir qilsa, Avant Kvarts yuzalari rangsiz, ya'ni dog' bo'lib bo'lishi mumkin, ammo bu materialning mustahkamligiga ta'sir qilmaydi. To'kilgan gidroflorik kislota darhol olib tashlanishi kerak, chunki u Avant Quartzning tarkibida mavjud kvarts bilan reaksiyaga kirishadi. Agar yuza ushbu moddalar bilan tasodifan aloqa qilsa, Avant Quartz yuzasini toza suv bilan yaxshilab va iloji boricha tezroq yuving, shu bilan birga terini va ko'zlarini himoya qilish haqida unutmang.

Ishqorlar. 10% va undan yuqori konsentratsiyalardagi Natriy gidroksidi va kaliy gidroksidi Avant Quartz yuzasidagi kvarts massiviinig qismlarini kemirib yuborishi mumkin, shuning uchun, bu moddalar kvarts yuzaga tegsa, ularni darhol yuvib tashlash zarur. Maishiy konsentratsiyalarda, masalan, kanalizatsiya quvurlarini tozalash uchun maishiy mahsulotlarning tarkibidagi natriy va kaliy gidroksidlari Avant Quartzga ta'sir qilmaydi.

Erituvchilar. Avant Quartz turli xil maishiy va sanoat erituvchilariga chidamli. Uy erituvchilari, shuningdek sanoat konsentratsiyalaridagi metiletiketone eritmaları ham Avant Quartzga ta'sir qilmaydi.

Quyida ko'rsatilgan eritmalarni **faqatgina toza holda** Avant Quartz yuzalariga bezarar ishlatish mumkin:

- Atseton
- Uayt-spirit
- Dixlormetan
- Lak o'chiruvchi
- Izopropil spirt
- Trikloretan

Bo'yoqlar. Avant Quartz oddiy laboratoriya bo'yoqlariga chidamli. Betadin, permanganate kaliy yoki yod unda hech qanday doimiy (ketmas) dog'larni qoldirmaydi. Avant Quartzda qolgan «Betadin» yoki yodning izlarini tarkibida xlor mavjud bo'lgan oqarturivchi vosita bilan osongina tozalanadi. To'q rangli va qora yuzalarda ushbu dog'lar qolmaydi. Gentsianviolet eritmaları, ko'k siyohlar va lab bo'yog'ining ayrim turlari bilan uzoq vaqt ta'sir qilishi tufayli Avant Quartz yuzalarida ba'zi ranglardagi dog'lar qolishi mumkin.

Avant Quartz yuzalari organik bo'yoqlarga chidamli bo'lsa-da, och rangli yuzalardan choy, qahva, yorqin rangli sharbatlar va boshqa dog'larni nam mato bilan darhol artish tavsiya etiladi.





Ekologiya barchasidan ustun

Muvofiqlik sertifikatlari



N 51 ANSI / NSF standarti - oziq-ovqat sanoati uchun uskunalarda ishlatiladigan materiallar. Avant Quartz yuzalarini tozalash va dezinfektsiyalash oson bo'lgani uchun ovqat tayyorlash joylarida foydalanish xavfsizdir.



GREENGUARD GOLD standartlari. Avant Quartz tarkibida kam uchuvchi organik birikmalar mavjud bo'lgan mahsuloti sifatida sertifikatlangan va kimyoviy moddalar ishlatilishiga yuqori talab etiladigan maktablarda, idoralarda va boshqa binolarda qo'llanish uchun sog'liqni saqlash jahon standartlariga rioya qiladi.



GOST 3 ISO 9001-2015 (ISO 9001:2015) Kvarts toshini ishlab chiqarish va sotish bilan bog'liq sifat menejmenti tizimining sertifikati.

Avant Quartz - ekologik xavfsiz mahsulot

- 93% kvatrsdan tashkil topgan, keng tarqalgan tabiiy material va boshqa minerallarni qazib olishning qo'shimcha mahsuloti.
- Uchuvchi organik birikmalar tarqalishining past darajasiga ega, xonalardagi havo sifatini yaxshilaydi.
- Yog'ochga qaraganda, kamroq zaxarli.



2015 Франш-Конте

Mahsulotning ishlatilishi

Tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarish. Oshxona stoleshnitsalari va boshqa mahsulotlar qurilish va mebel sanoatida foydalanish uchun mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan ishlab chiqarilishi mumkin.

Avant Quartz kvarts toshidan mahsulotlarni faqatgina sertifikatlangan ishlov beruvchilardan buyurtma qilish tavsiya etiladi.

Ishlatilish vaqti. Avant Quartz - juda qattiq material va u yillar davomida sizga xizmat qilishi mumkin

Tozalash va parvarishlash uchun maslahatlar. Avant Quartz maxsus parvarish talab qilmaydigan materialdir. Tabiiy toshdan farqli o'laroq, dog'larga chidamliligini oshirish uchun vaqti-vaqti bilan himoya vositalarini ishlatishni talab qilmaydi. Avant Quartz yuzalarining jozibali ko'rinishini maxsus tozalash vositalarini ishlatmasdan saqlash mumkin, bu xonaning havo sifatini yaxshilaydi va himoya va tozalash vositalarining atrof-muhitga ta'sirini kamaytiradi.

Mahsulotni qayta ishlatish. Avant Quartz plitalarining yuqori qattiqligi oshxona stoleshnitsalari va boshqa buyumlarni ziyonsiz demontaj qilish uchun ikmon beradi. Materialning uzoq yillarga xizmat qilishi esa mahsulotni ko'chirib o'tish va boshqa joylarda ham undan foydalanish imkonini beradi.

Texnik xususiyatlari

Sinov mavzusi	Sinov usullari	Sinov natijalari*
Massa yuritilishi	ASTM C97 / C97M-09	0,05%
Zichligi		2350 kg/m ³
Ishlatilishga chidamliligi (jilolangan yuza)	ASTM C241 / C241M-13	51
Egiluvchanli kuchi	ASTM C880 / C880M-09	Quruq holat: 35,8 MHa
		Nam holat: 38,0 MHa
Bosim kuchi	ASTM C170 / C170M-09	Quruq holat: 199 MHa
		Nam holat: 192 MHa
Porlashi (60°)	ASTM D523-08	42,5
Chiziqli qisqarish va issiqlik kengayish koeffitsienti	ASTM C531-00	36x10- 6/°C
Moos shkalasi bo'yicha qattiqligi (jilolangan yuza)	EN 101: 1991	7 ~ 8
Chiziqli termal kengayish koeffitsienti	ISO 10545-8: 1994 ga muvofiq	35x10- 6/°C
Sirlanmagan plitaning ishlatilishga bardoshligi (jilolangan yuza)	ISO 10545-6: 2010 ga muvofiq	39 mm ³
Radioaktivligi	GB 6566-2010	A Sinf

*Natijalar taqdim etilgan namunalarga tegishli.


Mahsulotni ishlab chiqarish va o'rnatish

Umumiy ma'lumot

Avant Quartz mahsulotlari tabiiy tosh mahsulotlarir kabi ishlab chiqariladi va o'rnatiladi.

Tashish, saqlash va ko'chirib o'tish

Avant Quartz plitalarining shikastlanishini oldini olish uchun, ulardan extiyotkorlik bilan foydalanish kerak. Bukilishning oldini olish uchun plitalar vertikal holatga yaqin tashilishi va saqlanishi kerak. Plitalarni bir biriga qaratib taxlang, ammo ularning ishqalanishini oldini oling. Ularni -4° dan 54° Cgacha bo'lgan xonada saqlang va to'g'ridan to'g'ri quyosh nuri tushmasligiga axamiyat bering.



7300 Калакатта Аяччо

Mahsulotni ishlab chiqarish uchun tavsiyalar

Qoyidagi qoidalarga rioya qiling:

- Plitalarni arralash va jilolash uchun suvli sovutgichga ega elektr asboblardan foydalaning.
- Plitalarni shunday taxlang-ki, L-simon fragmentlarni oldini olib, choklar soni minimal bo'lsin.
- Ishlov berishdan oldin o'lchamlarni bilib oling va materiallarni nuqsonlarga egaligi yoki ega emasligini tekshiring.
- Yorilishlarni oldini olish uchun ichki burchaklarning minimal radiusi 10 mmni tashkil etishi kerak.
- Kvarts sirtlari uchun poydevorlar Plumb chizig'i (otves) yordamida o'rnatilishi kerak, bir xil gorizont tekislikda bo'lishi va 3048 mm x 1,6 mm dan oshmaydigan tekislikka bardoshlili bo'lishi kerak. Poydevorlar va mahkamlash elementlari ishonchli tarzda o'rnatilishi kerak.
- Avant Quartz yuzasiga o'rnatiladigan aksessuarlarning aniq joylashuvi va kesmalari mavjud bo'lgan namunalardan foydalanish zarur.
-




1000 Дижон


Qirralar

* Qirralarning boshqa turlari ham bor


Oddiy




Ikkitalik radius




Qiya kesilish




Ikkitalik doirasimon



45°da ulanish




Qiya kesilish va to'g'ri burchak




Radius


Shakli




Doirasimon, qirralari yumaloqlangan "zina" bilan S-shakli




To'g'ri burchakli "zina" bilan S-shakli




S-simon



Uchtalik oval



Uchtalik doirasimon



Uchtalik S



Oshxona stoleshnitsalari

Avant Quartz plitalarini ushbu plita perimetri bo'yicha yasalgan baquvvat karkasga yoki stoleshnitsa xizmati davomida uni og'irligini ko'tarib turadigan 1,6 mm dan 3000 mm gacha bo'lgan faneradan yasalgan tekislikka o'rnatish kerak. Javonlarning ichiga har 610 mm oralig'ida stoleshnitsani kengligi bo'ylab uni ushlab turadigan elementlarni o'rnatish kerak. Kengligi 40-100 mm bo'lgan, stoleshnitsani butun kengligi bo'ylab ushlab turuvchi chiziqlardan foydalaning va ular bo'g'inlar va ushlab turadigan elementlar ostida bo'lishiga ahamiyat bering. Ammo ushlab turadigan elementlar stoleshnitsaning har bir ulanish joyida bo'lishi kerak.

- Agarda siz qirraning qalinligi 30 mm, o'zining qalinligi 20 mm bo'lgan materialdan foydalansangiz, poydevor sifatida qalinligi 10 mmdan kam bo'lmagan faneradan foydalaning. Ba'zi bir turdagi javonlar uchun karkas va ushlab turuvchi elementlarni ishlab chiqarishda qalinligi 20 mm bo'lgan fanera talab qilinishi mumkin.
- Fanera va kengaytirilgan qirralar orasida kamida 3 mm joy qoldiring.

ESLATMA: Ushlab turuvchi elementlar idish yuvish mashinasi o'rnatiladigan joy bo'ylab, shuningdek stoleshnitsa ostiga qo'yilgan pechning ustiga o'rnatilishi kerak.

Chiqib turadigan elementlar uchun poydevorlar (ushlab turuvchi elementlar)

Avant Quartzning har bir chiqib turuvchi elementlari uchun poydevor zarur. Quyidagi tavsiyalar 610 mm chuqurlikka ega standart javonlar uchun mo'ljallangan.

Chiqib ketish chuqurligi (kengligi)			Poydevorlar bo'yicha TAVSIYALAR
2 sm	2 sm 16 mmli poydevor bilan	3 sm	
< 200 mm	< 300 mm	< 40 mm	Qo'shinch qavslarni (kronshteynlar) o'rnatish talab qilinadi
200-400 mm	300-500 mm	400-600 mm	600 mm oraliqda oyoqlar, ustunlar yoki panellarni o'rnatish talab qilinadi
> 400 mm	> 500 mm	> 600 mm	



7080 Калакатта Пьерфон

O'rnatish

Tayyor mahsulot o'rnatish joyiga yaxshi joylashayotganiga amin bo'lish va kerakli joylarini to'g'irlab olish uchun sinov o'rnatishini amalga oshirish tavsiya etiladi. Devor va boshqa stasionar elementlar o'rtasiga o'rnatilayotgan Avant Quartz mahsulotining kengaytmasi uchun 11,6 mm va 1,5 mdan kam bo'lmagan ochiq joylarni qoldirish zarur.

Yuzani yaxshilab tozalab, so'ng yelimni surting. Avant Quartz mahsulotini ehtiyotkorlik bilan tanlangan joyga joylashtiring. Avant Quartzning yaxshi yopishishi uchun ko'p hollarda 100%lik silikon kleyning o'zi yetarli bo'ladi.

Avant Quartzning qo'shaloq elementlari bir biriga qattiq jipslashgan bo'lishi, bir tekislikda va toza bo'lishi kerak. Qo'shaloq elementlarni yuqori sifatli poliefir yoki epoksid yelimi bilan yopishtiring. Yelimni ishlab chiqaruvchining tavsiyalariga binoan ishlatting. Epoksid yelimi pigmentini shunday tanlang-ki, yelim rangi Avant Quartz yuzasiga to'g'ri kelsin. Ulanish joylarini yelim bilan to'ldirib, Avant Quartzni kerakli joylashuvda fikzatorlar (zajim) yordamida yelim qotmaguncha qoldiring. **Oshxona fartugi va stoleshnitsalar** orasidagi, shuningdek, hammom va dush xonasi atrofidagi choklarni muhrlash 100% silikon bilan amalga oshiriladi.

Biz xavfsiz qurilishning prinsiplariga to'g'ri keluvchi ekologik yelim, germetik va erituvchilardan foydalanishingizni maslahat beramiz.

Ehtiyot choralari. Tosh bilan ishlash jarayonida mehnat me'yorlariga, shuningdek belgilangan qurilish qoidalari va standartlariga rioya qiling. Avant Quartzni ishlab chiqarish jarayonidagi qattiq sifat nazorati bo'lgani bilan, kvarts massasi va tashqi ko'rinishida kichik o'zgarishlarga uchrashingiz mumkin. **Qo'shma elementlar bir partiyadan chiqqan plitalardan tayyorlanishi va mahsulotni yasashdan oldin tashqi ko'rinishi bir biriga to'g'ri kelishini tekshirib ko'rish kerak.**



7100 Статуарио Лилль

Kvarts toshining narxi

Avant Quartzning narxi tabiiy toshdan ancha arzon. Qo'shinch qixatlari, ya'ni kvarts toshining mustahkamligi tufayli ishlov berish yengillashishi, yoriqlarning paydo bo'lmashligi va uncha qalin bo'lmagan plitalarni ishlatish mumkin bo'lganligi uni yanada hamyonbop qiladi.

Avant Quartzning qaysar emasligi va ko'p yillarga xizmat qilishi ham mahsulotlarni ishlatish davomida harajatlarni tejaydi.

Kvarts toshining narxi

INTERSTONE Avant Kvartsning xususiyatlari nashr etilgan texnik ma'lumotlarga mos kelishini ta'minlaydi.

Каждый сляб Avant Quartzning har bir plitasi zavod nuqsonlariga qarshi kafolatlangan.

Kompaniya kvarts toshini qayta ishlash va tayyor mahsulotlarni o'rnatish bo'yicha texnik ko'rsatmalarga rioya qilmaslik natijasida plitalarning shikastlanishi va tayyor mahsulotlarning o'rnatish nuqsonlari uchun javobgar emas.



7700 Калакатта Марсель

Parvarish

Yaltiroq yuzalar. Avant Quartzning mustahkam, chuqurchalarsiz bo'lgan yaltiroq yuzalari oddiy parvarishni talab qiladi. Ko'p hollarda, sovunli suv yoki yumshoq yuvish vositasi - tozalikni saqlash uchun yetarli bo'lgan mahsulotlardir. Avant Quartz yuzasini saqlab qo'ish uchun maxsus visotalar va vosk bilan parvarishlanishni talab qilmasa-da, kvarts yuzasini chiroyini saqlab qolish uchun uni vaqti - vaqti bilan Cif geli yoki nam mato (salfetkalar) bilan tozalab turish kerak.

Avant Quartz yuzalari bo'yoqlarga chidamli bo'lsa-da, choy, qahva, yorqin rangli sharbatlarni darhol nam mato bilan artib yuborish kerak. Bu tozalash jarayonini yengillashtirib, mahsulotning chiroyli ko'rinishini saqlab qolishga yordam beradi.

Kerak bo'lsa, yopishib qolgan mahsulotlar, masalan ovqat, saqich yoki tirnoq bo'yoqlarini plastik shpatel bilan qirib olish mumkin. Shpatel izlari tarkibida oqartirish moddasi mavjud yuvish vositasi bilan oson olib tashlanadi. Yumshoq matoga oz miqdorda gelni tomizib, yuzani arting, so'ng toza suv bilan yaxshilab chayib yuboring.

Ko'proq ma'lumotlarni oling. Avant Quartz kvarts toshi haqida batafsil ma'lumotni interstone.uz saytimizda o'qishingiz mumkin.



INTERSTONE[®]
ЭКСПЕРТ В МИРЕ КАМНЯ

interstone.uz



O'zbekiston
Toshkent shahar,
Olmazor tumani, Qizg'aldoq
ko'chasi, 33/38

e-mail: office_uz@interstone.kz

7900 Калакатта Ла-Рошель

AVANT[®]
quartz